

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH CHORA TADBIRLARI

Andijon Davlat Pedagogika Instituti “Maktabgacha Ta’lim” kafedrası o’qituvchisi

Jo’raxo’jayev Muhammadaziz Halilxo’jayevich.

“Maktabgacha ta’lim” fakulteti Logopediya yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Shamsiddinovs Shohistaxon.

ANNOTATSIYA: Eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalarning kasallik tarixi. Karlar va qisman kar bo’lib qolgan bolalar. eshitishda nuqsoni bor bolalarning nutqini rivojlantirish chora tadbirlari.

Kalit so’zlar: surdopedagogika, tovush, eshitish chastotasi, eshituv analizatori, quloq, eshitishda nuqsoni bor bolalar, karlar, qisman karlar, eshitish markazi

Surdopedagogika- bu fan eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalarni o’rganuvchi fan. Nutq — murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo’lib o’sishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo’lib, atrofdagilarga taqlid etish yo’li bilan rivojlanib boradi. Og’zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog’langan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko’p jihatdan talaffuzga bog’liq. Bola nutqining o’sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi — o’z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so’zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi. So’z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Logopedlar asosan bolada nuqtni shakllantirishga harakat qiladi. Eshitishda nuqsoni bor bolalar ham kar va qisman karlarga bo’linadi.

Bola tug’ilganidan boshlab uning barcha sezgi organlari rivojlana boshlaydi. Sezgi organlari orqali bola tashqi muhitda bo’layotgan voqea-hodisalarni angelaydi va tushuna boshlaydi shu orali bolada ko’nikma paydo bo’laveradi. Tashqi muhitdan informatsiya ola boshlaydi. Inson tashqi muhitdagi informatsiyaning 90 foizini ko’rish orqali oladi. Ko’rish bu insonning birinchi o’rinda turuvchi sezgi ko’rgani. Bola tug’ilganidan boshlab 11 kunligidan dunyoni oq qora fonda ko’ra boshlaydi. 40 kun o’tgandan so’ng boshqa ranglarni ham anglay boshlaydi. Ikkinchi o’rinda eshitish organi turadi. Eshitish orqali bolada tushuncha paydo bo’ladi. Bolalar 1 yoshga to’lar to’lmas dada, aya, xola kabi ochiq bo’g’inli so’zlarni eshitib taqlid orqali ayta boshlaydi. Bolaning nutqini rivojlantirish uchun to’liq eshitish juda muhimdir. Kichkina bola eshitish yordamida tilning eng murakkab tizimini egallaydi, talaffuz qobiliyatlarini egallaydi, juda ko’p sonli so’zlarning tovush tarkibini, ulardan foydalanishni o’rganadi, so’zlarning grammatik o’zgarishlarida va jummalarni qurishda mavjud bo’lgan ma’noni tushunishni o’rganadi. Ikkala signal sistemasi, shuningdek, idrok bilan so’zning o’zaro aloqada bo’lishi aqliy rivojlanishning asosini tashkil etadi. Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so’ng, masalan, ikki yoshida yo’qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki, bil ganlarini ham asta-sekin unutadi, boladagi karlik bilan soqov lik qo’shib u kar-soqov bo’lib qoladi. Bolaga o’z vaqtida max sus yordam ko’rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo’ladi. Biroq nuqsonning o’rnini to’ldirib, boshqaruvchi jara yonlarni faollashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nutqiy rivojla nishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta’minlaydi.

Turg’un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko’ra tug’ma va orttirilgan bo’lishi mumkin.

Kar bolalarning 25–30 foizida eshitish nuqsonlari tug‘ma bo‘ladi. Bunga sabab: onaning homiladorlik davrida turli kasal liklar, masalan, gripp bilan kasallanishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning homiladorlik davrida bilar-bilmas dori darmonlarni iste‘mol qilishi (ayniqsa, streptomitsin, xinin singari dorilarni), homilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik o‘zgarishlar bo‘lishi, masalan, es hitish yo‘li atreziyasi – bituvi). Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatining nechog‘liq buzilganiga qarab yengil, o‘rta va og‘ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo‘linadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6–8 m maso fadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3–6 m masofada eshitadi. O‘rta daraja dagi zaif eshituvchi bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4–6 m, ovozsiz pichirlab gapirilga nini 1–3 m masofadan eshitadi. Og‘ir darajali zaif eshitishda bola o‘rta me‘yorda ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 m, shivirlashni 0,5 m masofadan eshitadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar sog‘lom tengdoshlari qatorida ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktab da ta‘lim-tarbiya olishi mumkin. Biroq ularga alohida munosabatda bo‘lish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish talab etiladi. Zaif eshitishi natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuza tiladi: lug‘atining kambag‘al bo‘lishi, grammatik komponent rivojlanmagan – gap ichida so‘zlarni tashlab ketish, so‘zlarni noto‘g‘ri ishlatish, ularni o‘zaro bog‘lay olmaslik, kelishik, so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni ishlata olmaslik, tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish – o‘xshash, jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish, tushirib ketish va boshqalar.

Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy asab markazi, o‘tkazuvchi yo‘llar yoki quloqning o‘zidagi o‘zgarishlar sabab bo‘ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba‘zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqiy axborotni qabul qi lish va uzatish imkoniyati eshitish (har qanday daraja karlikda u ma‘lum miqdorda bo‘ladi) qoldig‘idan optimal ravishda foydala nishga bog‘liq bo‘lganligi tufayli maxsus muassasalarda ta‘limni ovoz kuchaytiruvchi apparatlar asosida olib borish talab etiladi. Sinflar maxsus jihozlanadi. Ya‘ni ta‘lim muassasasi moddiy texnika negizining yo‘nalishga mos shakllanishi ta‘lim mazmunining samaradorligini oshiradi. Kar va zaif eshituvchi bola o‘z ona tilini shu til qonuniyatlari, xususiyatlaridan kelib chiqqan, mazkur bolaning ruhiy, nutqiy imkoniyatlariga moslashtirilgan, korreksion-kommunikativ tamoyillarga asoslangan va mahalliy sharoitlarni inobatga olgan maxsus yondashuv asosida egallaydi. Kar va zaif eshituvchi bolalar ta‘limiga «Labdan o‘qish» ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash mashg‘ulotlari kiritilgan. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar maxsus maktab internatlarining barchasi ovoz kuchaytiruvchi apparatlar bilan ta‘minlangan, xonalari maxsus tovush qaytarmaydigan qoplamalar bilan jihozlanadi, sog‘lomlashtirish bo‘yicha tadbirlarni maqsadli amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Rahmonova V.S Defektologiya asoslari (Toshkent “ Niso Poligraf “ 2017)
2. Logoped (QAHRAMONOVA.M)